



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLISH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Abduyev.Sh.

SamVXTXQTMOHM.

Informatika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 4-bo'limida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va amaliy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Ushbu me'yoriy xujjatlardi ijrosini ta'minlash maqsadida ta'lim tizimida bir qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Buning natijasi sifatida keng ko'lamli islohotlarning muhim bo'g'ini – innovatsiyalar ham bugun har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham o'zining afzalliklarini namoyish qilmoqda. Hozirgi vaqtda «innovatsiya» tushunchasi juda keng qo'llanilmoqda. Innovasiya so'zi inglizcha so'z bo'lib, innovatsion yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovasiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir.

Innovasiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovasiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun



yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- faoliyat yo'nalishiga qarab;
- kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra;
- kelib chiqish manbaiga ko'ra.

Ta'lim jarayonida, shu jumladan informatika fanini o'qitish jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib borishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslarga ta'lim jarayoniga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi va bunda talaba asosiy bo'g'inga aylanadi.

Innovation texnologiyalar informatika fanini o'qitish jarayoniga hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan, interfaol usullardan to'liq foydalaniladi. Interfaol usullar – bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Informatika fanini o'qitishni tashkil etishda innovatsion texnologiyalarining asosiy bosqichini texnologik xarita tuzish tashkil etadi

Bunda o'tiladigan mavzu yuzasidan vazifalar:

- o'quvchilarga mavzu bo'yicha to'g'risida to'liq ma'lumotlar berish.
- O'quvchilarda izchil mantiqiy fikrlashni shakllantirish, fikrlash doirasini kengaytirish, tartibli bardavomlikka mulohazakorlikka mayl uyg'otish.
- o'quvchilarda mavzuga doir mashqlarni yechishda darslik bilan mustaqil ishlash, masalalarni o'quvchilarning o'zlariga tuzdirish orqali informatikaga qiziquvchanligini oshirish, zukkolik va ziyrak tuyg'ularini rivojlantirish.

– mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat- munozara orqali tarqatma materiallaridagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini oshirish amalga oshiriladi.

Bu jarayonda o'quv jarayonining mazmuni: o'quvchilarga aqliy hujum, bahs-munozara uyg'unligidagi mavzuni tushuntirish davomida mavzu bo'yicha kerakli tushunchalarni bayon etish, masalalarni masalani yechish qoidalarini o'rgatish, shu

qoidalar ustida ishlashni o'rgatish, savol-javob va musobaqa shakldagi topshiriqlarni bajarish ustida ishlash orqali yangi mavzuni mustahkamlashdan iborat bo'ladi.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasida esa aqliy hujum, bahs-munozara, musobaqa, amaliy mashg'ulot kichik guruhlarda, jamoada va individual ishlash, plakatlar, tarqatma materiallar, o'quvchilar tomonidan tuzilgan mavzuga oid misollar tayyor yozma materiallar, chizmalar plakatlar asosida tushuntiriladi. Shu bilan birga o'quvchilarning bilimi og'zaki nazorat, savol- javoblar, kuzatish, o'z – o'zini, o'quvchilarning bir – birlarini nazorat qilishi orqali tekshirilib, 5 ballik tizim asosida baholanadi.

Informatika fanini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish natijasida o'qituvchi quyidagilarga erishadi:

- mavzuni qisqa vaqt ichida diqqatni jalb qiluvchi metodlar yordamida o'quvchilar tomonidan tez o'zlashtirilishiga erishadi;
- faollikni, intiluvchanlikni oshiradi;
- o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'onadi;
- o'z oldiga qo'ygan maksimal maqsadiga erishadi

Informatika fanini axborot texnologilaridan foydalanib, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish jarayonida o'quvchi:

- yangi bilimlarni egallaydi;
- yakka va guruh bo'lib ishlash malakasini oladi;
- nutqi, muloqot ko'nikmasi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyatlari kuchayadi;
- o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi;
- qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi, ma'nan shakllanadi.

Informatika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish-ning amaliy ahamiyati dars jarayonida axborot kommunikasion texnologiyalardan foydalanish dars mavzusining muammoli masalalariga diqqatni qaratish imkonini beradi.

Darslarni axborot texnologiyalari yordamida innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etishni o'quvchilarga ular maktabda ta'lim olishni boshlangan vaqtdan boshlab ommaviy ravishda o'qitishni boshlash kerak, chunki bu davrda o'quvchilarda ko'nikmalar tez shakllanadi. Chunki o'quvchilarning ko'p qismi maktabga cha bo'lgan davrdanoq kompyuter savodxonligiga ega bo'lishmoqda. Ular kompyuter orqali har xil o'yinlarni o'ynashni, kompyuter qismlaridan qanday foydalanishni bog'cha yoshidanoq o'rganib olmoqda. Shularni e'tiborga olib, ta'limga axborot-kommunikasion texnologiyalarni kiritish talab darajasiga chiqmoqda.

Informatika darslarida innovatsion texnologiyalardan o'z o'rnida samarali foydalanilishi, mashg'ulotlarning qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o'quv materiallarining chuqur o'zlashtirilishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

Dars jarayonlariga ta'limning zamonaviy innovatsion texnologiya-larini kiritish, yoshlarni mustaqil ijodiy ishlashga, erkin fikrlashga o'rgatish bilan birga, fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, darsni ko'rgazmaliligini va tushunarligini oshiradi.

Shu bilan birga ta'limni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishi informatika fani o'qituvchisidan kompyuter savodxonligiga ega bo'lishni, axborot resurslaridan foydalangan holda fanga oid ma'lumotlarni o'quvchilarni



qanoatlantiradigan darajada yetkazib berish malakasini talab etadi. Shuning uchun o'qituvchi darsga jiddiy tayyorlanmasligi mumkin emas. O'qituvchi har bir darsni noan'anaviy usulda o'tishi lozim.

Informatika fanini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish o'quvchilarning mustaqillik va o'zini boshqarish hamda rivojlanishiga yordam beradi, o'quvchining hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini kengaytiradi. Asosiysi, u o'quvchilarning kommunikativ ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga va ular o'rtasidagi hissiy muloqotni o'rnatilishiga yordam beradi, kompyuter bilan ishlashga o'rgatadi.

Foydalanilgan manbalar

1. “2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasi” . O'zbekiston Prezidenti farmoni. 7-fevral 2017 yil.
2. Уваров А. Информатика в школе: вчера, сегодня, завтра // Информатика и образование, 1990, №4.
3. Иванов М. Пути совершенствования методов преподавания в высшей школе// Совр.высш.школа, 1982. №3.